



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**



**BUXORO VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKIOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2023- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-mart holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 31 660 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 28 113 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 1,0 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 0,9 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil mart holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda 382 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 309 taga, oilaviy korxonalar 68 taga ko‘paygan.


Hududlar kesimida

Qorako‘l t.	117	7,8 %	Kogon t.	59	3,5 %
Buxoro sh.	190	2,0 %	Shofirkon t.	47	2,8 %
G‘ijduvon t.	78	2,3 %	Peshko‘ t.	37	2,2 %
Buxoro t.	60	2,4 %	Olot t.	32	2,9 %
Jondor t.	80	3,4 %	Kogon sh.	56	4,2 %
Romitan t.	98	3,8 %	Qorovulbozor t.	19	2,7 %
Vobkent t.	66	3,6 %			


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2023- yil 1- mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga (31 354 ta) nisbatan 306 taga oshganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 8 871 tadan 9 213 taga (o'sish 342 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3 319 tadan 3 122 taga (197 taga kamaygan), sanoat – 4 884 tadan 4 681 taga (203 taga kamaygan).

Hududlar kesimida


Buxoro sh.	9 330	103,6 %	Kogon t.	1 672	98,2 %
G'ijduvon t.	3 408	103,4 %	Vobkent t.	1 838	109,9 %
Romitan t.	2 609	97,6 %	Qorako'l t.	1 500	94,6 %
Buxoro t.	2 528	104,5 %	Kogon sh.	1 321	103,7 %
Jondor t.	2 347	106,3 %	Olot t.	1 088	103,8 %
Shofirkon t.	1 669	89,0 %	Qorovulbozor t.	701	94,5 %
Peshko' t.	1 649	89,1 %			

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-fevral oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 926 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 924 ta;
- yirik korxonalar 2 ta.



Hududlar kesimida

Qorako'l t.	117	7,8 %	Kogon t.	58	3,5 %
Buxoro sh.	184	2,0 %	Shofirkon t.	46	2,8 %
G'ijduvon t.	77	2,3 %	Peshko' t.	37	2,2 %
Buxoro t.	58	2,3 %	Olot t.	31	2,8 %
Jondor t.	80	3,4 %	Kogon sh.	56	4,2 %
Romitan t.	98	3,8 %	Qorovulbozor t.	19	2,7 %
Vobkent t.	65	3,5 %			


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- mart holatiga 28 275 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 170,1 foizni tashkil etdi (11 653 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,6 foiz, sanoat – 16,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,9 foiz, qurilish – 9,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,4 foiz, tashish va saqlash – 8,0 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,6 foiz, boshqa turlari – 9,9 foiz.

Hududlar kesimida


Buxoro sh.	8 389	103,9 %	Peshko' t.	1 435	87,7 %
G'ijduvon t.	3 071	103,5 %	Vobkent t.	1 632	110,8 %
Romitan t.	2 390	97,5 %	Qorako'l t.	1 252	93,8 %
Buxoro t.	2 294	104,3 %	Kogon sh.	1 193	103,9 %
Jondor t.	2 113	107,2 %	Olot t.	925	103,9 %
Kogon t.	1 537	98,0 %	Qorovulbozor t.	620	93,2 %
Shofirkon t.	1 424	87,7 %			

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-fevral oylarida axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 11 tadan 30 taga (o'sish 19 taga), savdo – 229 tadan 324 taga (o'sish 95 taga) ko'paydi.



Hududlar kesimida

Qorako'l t.	117	9,4 %	Kogon t.	58	3,8 %
Buxoro sh.	184	2,2 %	Shofirkon t.	46	3,2 %
G'ijduvon t.	77	2,5 %	Peshko' t.	37	2,6 %
Buxoro t.	58	2,5 %	Olot t.	30	3,3 %
Jondor t.	80	3,8 %	Kogon sh.	55	4,7 %
Romitan t.	98	4,1 %	Qorovulbozor t.	19	3,1 %
Vobkent t.	65	4,0 %			


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Buxoro shahrida (29,7 foiz), G'ijduvon (10,9 foiz), Romitan (8,5 foiz), Buxoro (8,1 foiz) va Jondor (7,5 foiz) viloyatlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 60 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Buxoro sh.	8 339	103,9 %	Peshko' t.	1 428	87,9 %
G'ijduvon t.	3 056	103,5 %	Vobkent t.	1 627	110,8 %
Romitan t.	2 380	97,5 %	Qorako'l t.	1 242	93,6 %
Buxoro t.	2 286	104,1 %	Kogon sh.	1 179	104,0 %
Jondor t.	2 110	107,2 %	Olot t.	920	103,8 %
Shofirkon t.	1 416	87,5 %	Qorovulbozor t.	607	93,2 %
Kogon t.	1 523	97,9 %			

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Rometan t.	506
Buxoro t.	331
Jondor t.	313
G‘ijduvon t.	305
Kogon t.	293
Buxoro sh.	257
Vobkent t.	219
Qorovulbozor t.	201
Peshko‘t.	191
Shofirkon t.	173
Qorako‘l t.	146
Olot t.	104
Kogon sh.	83



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Buxoro sh.	1 234
G'ijduvon t.	583
Buxoro t.	365
Kogon t.	364
Jondor t.	350
Rometan t.	331
Vobkent t.	283
Shofirkon t.	229
Kogon sh.	226
Qorako'l t.	218
Peshko' t.	210
Olot t.	167
Qorovulbozor t.	121



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 102,0 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,4 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yil ning mos davriga nisbatan o'sish 95,5 foiz), 2,9 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 97,2 foiz), 2,3 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 112,5 foiz) va 0,4 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 90,0 foiz) tashki etgan.



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	963
Rometan t.	224
Jondor t.	223
Buxoro t.	220
G'ijduvon t.	198
Shofirkon t.	197
Peshko' t.	147
Kogon t.	132
Vobkent t.	131
Kogon sh.	129
Qorako'l t.	92
Olot t.	80
Qorovulbozor t.	55



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 59,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,9 foizga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 28,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 baravar oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 12,8 foiz ulushni va 40,8 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

782


Fuqarolik
obyektlarini qurish

358

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 651


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	2 595
G'ijduvon t.	1 144
Rometan t.	729
Buxoro t.	721
Jondor t.	597
Qorako'l t.	531
Vobkent t.	519
Peshko' t.	512
Shofirkon t.	500
Kogon t.	437
Kogon sh.	405
Olot t.	368
Qorovulbozor t.	155



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 187 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 64,0 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 117,5 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 118,2 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 135,0 foizni tashkil etdi.

941

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 376

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 896

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	1 026
G'ijduvon t.	261
Rometan t.	149
Buxoro t.	140
Vobkent t.	138
Jondor t.	136
Qorako'l t.	111
Olot t.	100
Kogon sh.	89
Kogon t.	69
Shofirkon t.	67
Peshko' t.	65
Qorovulbozor t.	39



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 179,4 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'harlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 17,2 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 82,8 foiz ulushini tashkil etdi.

410

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 980


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Buxoro sh.	178
Kogon sh.	25
Vobkent t.	20
Jondor t.	20
Buxoro t.	17
G'ijduvon t.	17
Peshko' t.	16
Kogon t.	12
Shofirkon t.	11
Rometan t.	10
Qorako'l t.	8
Qorovulbozor t.	6
Olot t.	5



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 24,1 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 81,4 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 43,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 167,4 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	364
Buxoro t.	85
G'ijduvon t.	82
Jondor t.	47
Kogon sh.	40
Shofirkon t.	40
Rometan t.	34
Vobkent t.	29
Peshko' t.	27
Kogon t.	24
Qorako'l t.	24
Olot t.	12
Qorovulbozor t.	7



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 736 ta yoki 90,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

95,8 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,2 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,5 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 80,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 100,0 foizni tashkil etdi;

14

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



20

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash




781

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	597
G'ijduvon t.	290
Jondor t.	288
Romitan t.	259
Vobkent t.	189
Buxoro t.	182
Peshko' t.	109
Kogon t.	106
Shofirkon t.	102
Kogon sh.	67
Olot t.	31
Qorako'l t.	26
Qorovulbozor t.	19



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 7,2 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 125,8 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 109,5 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 123,5 foizni tashkil etdi;


havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,0 baravarga oshgan;



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**
2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Buxoro sh.	164	2,5 %	Shofirkon t.	41	3,7 %
Romitan t.	95	4,4 %	Qorako'l t.	38	5,8 %
Jondor t.	77	4,1 %	Peshko' t.	37	3,1 %
G'ijduvon t.	59	2,7 %	Kogon sh.	20	2,8 %
Vobkent t.	55	4,9 %	Qorovulbozor t.	19	3,5 %
Buxoro t.	51	3,1 %	Olot t.	10	2,4 %
Kogon t.	48	4,2 %			


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 28 275 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 21 364 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich tashish va saqlash – 126,0 foiz, savdoda – 107,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 105,9 foiz, boshqa tarmoqlarda – 102,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Buxoro sh.	6 516	107,0 %	Vobkent t.	1 134	114,5 %
G'ijduvon t.	2 223	108,1 %	Shofirkon t.	1 110	90,0 %
Rometan t.	2 175	98,5 %	Kogon sh.	723	105,7 %
Jondor t.	1 865	108,9 %	Qorako'l t.	660	94,7 %
Buxoro t.	1 640	109,1 %	Qorovulbozor t.	549	94,5 %
Peshko' t.	1 200	89,4 %	Olot t.	419	114,5 %
Kogon t.	1 150	103,0 %			

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-fevral oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 12 taga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 7 taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

Qorako'l t.	42	12,5 %	Buxoro t.	4	1,1 %
Kogon sh.	15	6,9 %	G'ijduvon t.	2	0,6 %
Buxoro sh.	8	0,8 %	Shofirkon t.	1	1,0 %
Kogon t.	5	2,3 %	Jondor t.	1	0,9 %
Olot t.	5	1,5 %	Vobkent t.	1	0,7 %


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,6 foizni tashkil etadi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (77,1 foiz), axborot va aloqa (70,4 foiz), sanoat sohalari (86,8 foiz), tumanlar kesimida esa – Shofirkon (71,4 foiz), Qorako'l (66,7 foiz), Peshko' (80,2 foiz) va Kogon (81,0 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	1 033	90,1 %	Vobkent t.	134	97,8 %
Buxoro t.	378	92,4 %	Jondor t.	110	90,9 %
Qorako'l t.	337	93,6 %	Shofirkon t.	100	71,4 %
Olot t.	331	93,0 %	Romitan t.	95	88,8 %
G'ijduvon t.	317	88,8 %	Peshko' t.	85	80,2 %
Kogon t.	218	81,0 %	Qorovulbozor t.	22	66,7 %
Kogon sh.	217	96,0 %			

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxon – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Hududlar kesimida

Qorako'l t.	37	15,6 %	Kogon t.	4	2,6 %
Kogon sh.	21	9,1 %	Shofirkon t.	3	1,5 %
G'ijduvon t.	16	3,1 %	Romitan t.	3	3,0 %
Olot t.	13	7,8 %	Jondor t.	2	1,6 %
Buxoro sh.	9	1,3 %	Buxoro t.	2	0,8 %
Vobkent t.	9	2,5 %			


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 112 taga kamaygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda – 957 tadan 947 taga (o'sish 10 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 804 tadan 814 taga (kamayish 10 ta), sanoatda – 832 tadan 884 taga (kamayish 52 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	711	100,7 %	Olot t.	166	102,5 %
G'ijduvon t.	516	95,6 %	Kogon t.	152	91,0 %
Vobkent t.	355	105,3 %	Peshko' t.	137	85,6 %
Buxoro t.	251	96,5 %	Jondor t.	124	100,0 %
Qorako'l t.	237	91,2 %	Romitan t.	101	86,3 %
Kogon sh.	232	105,5 %	Qorovulbozor t.	32	88,9 %
Shofirkon t.	200	84,4 %			

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	8	3,6 %	Olot t.	-	-
Kogon t.	-	-	Buxoro t.	1	2,9 %
Romitan t.	-	-	Peshko‘ t.	-	-
G‘ijduvon t.	-	-	Jondor t.	-	-
Qorako‘l t.	-	-	Vobkent t.	1	16,7 %
Kogon sh.	-	-	Qorovulbozor t.	-	-
Shofirkon t.	-	-			


2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2.1 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 61 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 16,2 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 13,8 foiz), Xitoy (ulushi 7,4 foiz), Turkmaniston (ulushi 10,9 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 6,6 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Buxoro sh.	223	116,1 %	Jondor t.	9	60,0 %
Buxoro t.	31	124,0 %	Shofirkon t.	8	88,9 %
Kogon t.	27	103,8 %	Qorako'l t.	8	100,0 %
Kogon sh.	15	93,8 %	Olot t.	7	116,7 %
G'ijduvon t.	14	116,7 %	Vobkent t.	6	100,0 %
Romitan t.	13	108,3 %	Qorovulbozor t.	5	55,6 %
Peshko' t.	10	50,0 %			

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

	Davlatlar nomi	soni
	Afg'oniston	1
	Xitoy	1
	Germaniya	1
	Yaponiya	1
	Qozog'iston	1
	Pokiston	2
	Rossiya	1
	Birlashgan A A	1
	Turkmaniston	1

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 199 tasi qo'shma korxonalar, 177 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

99	Buxoro sh	124
22	Buxoro t	9
18	Kogon t	9
12	Kogon sh	3
10	G'ijduvon t	4
8	Romitan t	5
7	Jondor t	2
6	Shofirkon t	2
4	Qorako'l t	4
4	Vobkent t	2
3	Peshko' t	7
3	Qorovulbozor t	2
3	Olot t	4

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Buxoro viloyat statistik registrlarni
yuritish boʻlimi
Tel.: (65) 223-83-20